



## KIMYO FANINI O'QITISHDA NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH ASOSLARI

---

*Abdullayeva Saboxatxon Abdug'aniyevna*  
*Angren shaxar 2-sonli kasb –hunar maktabi*  
*kimyo fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kimyo fanini o'quvchilarga o'rgatish jarayonida nazariy va amaliy va laboratoiya darslarni tashkil qilish, dars samaradorligini oshirishda o'qituvchi mahoratini oshirish haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Kimyo, o'qituvchi, o'quvchi, kimyoviy reaksiya, laboratoriya ishi, nazariy dars ,amaliy dars ,ta'lim va tarbiya

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati jahon andozalariga mos keladigan kadrlar tayyorlash masalalariga e'tiborni qaratib kelmoqda. Yurtimizda professional ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan kasb-hunar maktablari ta'lim tizimi oldida ulkan vazifalar turibdi. Mamlakatimizda o'qituvchilarga juda katta mas'uliyat va ishonch yuklangan. Jaxon andozalariga mos keladigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ,ularning fidokorona mehnatlarining samarasiga bog'liq. Bu sharaflil vazifani bajarish uchun o'qituvchi har tomonlama bilimli va salohiyatli o'z faning haqiqiy egasi bo'lishi kerak.O'quvchilarga fanning sirlarini o'rgata olishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi doimo o'z ustida ishlashi bilimini oshirib va rivojlantirib borishi, yangi o'qitish metodlarini izlashi, o'quv jarayonini takomillashtirib borishi zarur.

Hozirgi kunda har bir o'qituvchi , pedagogik jamoa o'quvchilarni kasbga o'rgatish bilan birga fanlardan bilimga ega bo'lishlariga erishishlari kerak. Bu vazifani amalga oshirishda boshlangich mas'uliyat umumta'lim fanlari ,maxsus va kasbiy fanlar ,amaliyot fanlari o'qituvchilar- ishlab chiqarish ta'limi ustalari zimmasiga tushadi.Yosh avlodga kasb sirlarini o'rgatishi, hayotda o'z o'rnini topishida o'qituvchini o'rni katta.O'qituvchi o'quvchining aqliy va ma'naviy dunyosiga keng ta'sir etuvchi, jamiyatning ishonchli vakilidir. Unga jamiyat uzining eng bebaho boyligi — kelajagini, ya'ni bolalarini ishonib topshirgan. Boshqa o'quv fanlari kabi kimyo fani ham yosh avlodni kasbiy faoliyatida muhim o'ringa ega. Kasb-hunar maktablari har bir qishloq yoki shaharni joylashgan o', ish bilan ta'minlashda talab va taklifdan kelib chiqqan holda bir necha yo'nalishlar bo'yicha o'quvchilarga bilim beradi. Avtomobil, energetika ,ekologiya va boshqa



sohalar. Kimyo fani har bir yo‘nalishda kerak. O‘quvchilar egallaydigan kasblaridan kelib chiqqan holda modda xossasining uning tuzilishiga bog‘liqligini ; modda xossalaridan foydalanib, ularni amalda ko‘llash sohalarini, kimyoviy reaksiyalarning borish qonuniyatlari asosidagi bilimlardan foydalanib, jarayonlarni boshqarish imkoniyatlari; anorganik va organik moddalarning material birligi moddalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish, mamlakat xo‘jaligini rivojlantirishda kimyoning ahamiyati; atrof-muhitni muhofaza qilishni o‘rganadilar va kasbiy faoliyatda qo‘llash malakasini egalaydilar.

Kasb-hunar maktablari kimyo fani o‘quv dasturi asosida darslar nazariy amaliy va laboratoriya shakllarida o‘tkaziladi. Dars jarayonini boshqarish va tashkillashtirishda o‘qituvchining bilimi, tajribasi, ko‘nikmasi, ilmiy-pedagog salohiyati, mahorati, qobiliyati asosiy omil hisoblanadi. Shunga ko‘ra, jumladan nazariy darslarni oddiydan murakkabga qarab rivojlantirib qo‘llaniladigan o‘quv qo‘llanmalar va vositalar tayyorlanadi. O‘quv xonasi dars uchun tayyorlab qo‘yiladi.

O‘qituvchi nazariy darslarni tashkil etishda o‘quvchilarni savol-javobga undash orqali guruhda muhokama muhitini yaratadi, ijobiy javobni shakllantiradi vaqtincha erkin fikr almashishga ruxsat beradi, kundalik hayotdan ibratli misollar keltiradi, o‘quvchilarni savol berishga undaydi ilgari o‘rganilgan hodisa va vaziyatlarni yangilari bilan taqqoslashni amalga oshiradi, fan doirasida turli ma’lumotlarni jonli, qiziqarli bayon qiladi.

Laboratoriya ishlari o‘quvchilarning yangi mavzuni ancha tushunib idrok etishlari uchun yordam beradigan juda muhim vositalardan biridir. Mavjud dasturga muvofik laboratoriya rejalari maktabning 1-bosqichida o‘tiladi. Laboratoriya ishlarini yo‘riqnoma asosida o‘quvchilar mustaqil ravishda yozadilar. O‘qituvchi yozilganlarni albatta tekshirishi kerak. Amaliy mashg‘ulotlarning o‘ziga xos hususiyati shundan iboratki, o‘quvchilar bu mashg‘ulotlarda butun dars davomida davomida ishlaydilar. Bu mashg‘ulotlar odatda kimyo kursining ma’lum kismi yoki butun bir mavzusi o‘rganilgandan keyin o‘tkaziladi. O‘quvchilar dasturda berilgan amaliy mashtulotlarni bajarishlari majburiydir. O‘quvchilar amaliy mashg‘ulot vaqtida tajribani ongli ravishda bajara olishlari olgan bilimlarini, kimyoviy eksperiment texnikasini o‘rganishlari, hodisani to‘g‘ri izohlashlari, amalda qo‘llay bilishlari kerak. Kimyoviy tajribalar ko‘rsatish jarayonida tajriba o‘tkazishga yaxshi tayyorlanib, texnika xavfsizligiga alohida e’tibor berish lozim.

Davlat ta’lim standartlari talablariga ko‘ra kimyo xonasining maqsadga muvofiq holda yaxshi jihozlanishi eng muhim vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.



Xonaning jihozlanishi laboratoriya mashg'ulotlarni yaxshi o'tkazishga to'liq imkon berishi bilan birga u pedagogik, ilmiy, ruhiy fiziologik, estetik va texnikaviy talablarga javob beradigan bo'lishi shart. Xonadagi o'qitish to'plami komplekti sinfdagi barcha o'quvchilarga yetadigan bo'lishi kerak. Har bir o'quv mazmuni muayyan laboratoriya amaliy mashg'ulotlarni va amalda ko'rsatiladigan tajribalarni o'tkazishga mo'ljallangan bo'ladi. Amalda ko'rsatiladigan va laboratoriya tajribalari o'quvchilar darsda o'tgan mavzuni yanada chuqurroq o'zlashtirib olishlariga yordam beradigan bo'lishi zarur. Tajribalar o'tkazishda ishlatiladigan asbob va jihozlar ixcham, qulay bo'lishi hamda doimo taxt turishi kerak. O'quvchilarga o'qituvchining ruxsatisiz hech qanday modda bermaslik kerak. Asbob va idishlarni tajriba o'tkazishga tayyorlashda uning nihoyatda toza bo'lishiga e'tibor berish lozim. Laborant laboratoriya mashg'ulotini o'tkazishda o'qituvchiga bevosita yordam beradi. xar bir laboratoriya mashg'ulotini o'tkazishda laborant nimalarni tayyorlashi kerakligini o'qituvchi maxsus laboratoriya jurnaliga yozib qo'yadi. Quyida jurnalni qanday yuritishga misol keltiramiz. Laborant ko'rsatadigan tajriba yoki laboratoriya mashg'ulotiga zaruriy asbob va reaktivlarni o'qituvchi tomonidan tuzilgan kartochka asosida tayyorlaydi. Laboratoriya ishi bajarilayotganda laborant o'quvchilarning bajarayotgan ishlarini o'qituvchi bilan birgalikda kuzatib boradi. Laboratoriya darsni o'tkazish eng muhim va mas'uliyatli ishlardan biridir. Laboratoriya mashg'ulotini shunday tashkil etish kerakki, o'quvchilar uning natijalarini oldindan bilib ololmaydigan, balki mustaqil tajriba o'tkazishda olingan natijalarni tahlil kilib, sodir bo'lgan hodisaning sabablarini topadigan bo'lsinlar. Laboratoriya ishlari o'quvchilar bilimni chuqurlashtirishga, ularni tabiatdagi turli qonuniyatlarning asosi bilan tanishtirishga imkoniyat tug'diradi. O'quvchilar mavzuga oid bilimlarni yaxshi o'rganib, mustaqil fikrlash malakasi hosil qilganliklaridan keyingina laboratoriya mashg'ulot o'tkaziladi. shu sababli o'quvchilar o'qituvchi ko'rsatadigan tajribalarni diqqat, e'tibor bilan kuzatib turishlari va uyga berilgan topshiriqlarni so'zsiz bajarib kelishlari zarur. Laboratoriya mashg'ulotini o'tkazishdan oldin o'qituvchi shu mashg'ulotga doir mavzuning nomini eslatib o'tadi va mavzuni o'qib kelishga buyuradi, shu bilan birga laboratoriya ishidan yoziladigan hisobot shaklini tayyorlab keladi. O'qituvchi bajarilishi lozim bo'lgan laboratoriya ishini o'quvchilarga tushuntirganda ular oldiga quyidagicha talablar qo'yadi: 1.Har bir ishni puxta bajarish uchun asbob jihozlardan to'g'ri foydalana bilish. 2.Laboratoriya ishini boshidan oxirigacha mustaqil bajarish va undan to'g'ri xulosa chiqarish. 3.O'tkazilayotgan kimyoviy reaksiyada yuz berayotgan hodisaning mohiyatini tushunib, undan to'g'ri xulosa chikarishga 4.Kimyoviy reaksiyalar vaqtida issiqlik



chiqishi va yutilishi, yorug'lik va tovush chiqish sabablarini aniq bilib olish. 5.Reaksiya vaqtida hosil bo'layotgan moddalarning rangi, hidi va agregat holatini esda qoldirish hamda yozib borish. 6.Har bir ishni xavfsizlik texnikasi qoidalariga to'la rioya qilgan holda mustaqil bajarish.Ana shu talablarga amal qilinsa ko'zlangan natijaga erishish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Raxmatullayev N.G., Omonov X.T Mirkomilov Sh.M. Kimyo o'qitish metodikasi. Toshkent. «O'qituvchi» 2008
2. M.Nishonov, Sh.Mamajonov, V.Xo'jayev «Kimyo o'qitish metodikasi» Toshkent O'qituvchi 2002
3. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» T. «O'zbekiston» 1997y 4. Golish L.V. «Ta'limning faol usullari: mazmuni, tanlash, amalga oshirish» T. O'rta maxsus kasb-xunar ta'limi markazi, 2001 y. 5. «Kimyo xonasi» - RTM metodik tavsiyalari, Toshkent, 2012.6. Asqarov I. va boshqalar. Kimyo 9– sinf darslik. –Toshkent, 2002.